

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

Metodika

2022 Vol. 2 (4)

www.metodika.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

Metodika

2022 Vol. 2 (4)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Marg'uba Abdullayeva

Bosh muharrir o'rinbosari: Gulnoza Jo'rayeva
Shohruh Abdiraimov

Mas'ul kotib: Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Saidbek Boltaboyev (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Muratbek Bagila Kurmanbekkizi (Qozog'iston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Roza Niyozmetova, Laylo Raupova, Shohida Yusupova, Valijon Qodirov, Tursunoy Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Hoshimjon Ahmedov, Saodat Qambarova, Matluba Jabborova, Odina Saidahmedova, Dilfuza To'xliyeva, Mahfuza To'ychiyeva, E'zoza Sobirova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Metodika" seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. "Metodika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. "Metodika" seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz

Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Saodat Kambarova

Blum taksonomiyasi – o'quv materiallarini o'zlashtirishning muhim vositasi sifatida 4

Rayhona Tillayeva

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish – yaratuvchanlik omili sifatida.....13

Omonulla Bayjigitov

Badiiy matnlarda obrazli frazeologik birliklarning kognitiv xususiyatlari.....25

Ерлан Нугуманов

Әдебиет пәнін оқытудағы эмоция, сыни ойлау, көшбасшылық мәселелері.....34

Farrux Qulsaxatov

"Boburnoma" va fanlararo integratsiya.....43

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Tursunay Yusupova

O'quvchilarda insho matnidagi xatboshilarning vazifaviy-mazmuniy turlariga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.....51

Klaraxon Mavlonova

Ona tili darslarida matnning tuzilish xususiyatlarini o'rganish zarurati.....60

Odinaxon Saidaxmedova

Til o'zlashtirish: ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi hamda unga doir nazariyalar72

Sanobar Kuldasheva

Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish86

Dilnoza Boymaxmatova

Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda to'garak mashg'ulotlarining o'rni.....100

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Gulnoza Jurayeva

Bolalar adabiyotini o'qitishda hajviy she'riyatning ahamiyati (Muazzam Ibrohimova ijodi misolida)..... 112

Dilfuza Tuxliyeva

Mumtoz lirik janrlarni o'qitishga oid nazariy qarashlar va ularning milliy metodikadagi ahamiyati 121

Iroda Ishonxanova

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda Blum taksonomiyasini qo'llashning ahamiyati..... 136

Mastona Norqulova

"Alpomish" dostonini o'qitishda muammoli vaziyatlarni tashkil qilish usullari....148

Mahliyo Elboyeva

O'zbek bolalar adabiyotini o'rganishda texnologik yondashuv..... 157

Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish

Sanobar Kuldasheva¹

Abstrakt

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili ta'limidagi yangicha yondashuvlar, til ta'limini AKT bilan integratsiyalash, ona tili darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning me'yor va mezonlari, mazmuni haqida fikr yuritilgan. Olimlarning o'quv ta'limida multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari haqida bildirilgan fikrlari tahlil qilingan. Multimediya vositalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik jihatlari yoritilgan. Darsning yangi mavzuni tushuntirish bosqichi uchun mo'ljallangan multimediali texnologiya ssenariyasi tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: *multimedia vositalari, mediamadaniyat, mozaika, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, animatsiya, videolavha.*

Kirish

Jamiyat rivojlanishi fan, texnika taraqqiyoti va ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Insoniyat sivilizatsiyasida ta'lim jarayonini qat'iy talablar asosida yo'lga qo'yish kun tartibiga qo'yildi. Chunonchi, ta'lim tizimi innovatsion texnika va texnologiyalar bilan ishlay oladigan, jarayon mohiyatini to'laqonli anglay olgan, turli vaziyatda yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal etish salohiyatiga ega va buni hayotda tatbiq eta oladigan malakali mutaxassislarni taqozo etmoqda. Shuning uchun ham ta'lim tizimi vazifalari tobora kengayib bormoqda. Tabiiyki, zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalana olish vazifasi namoyon bo'lmoqda.

O'quv jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish va uni qo'llashga bo'lgan talab, e'tibor va qiziqish kundan kunga kuchaymoqda. Albatta, buning muhim sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat

¹Kuldasheva Sanobar Xayotovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: kuldashevasanobar01@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5476-7539

Iqtibos uchun: Kuldasheva, S. 2022. "Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2(4): 86 – 99.

tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan, zamonaviy pedagogika esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishga, mustaqil fikrlab tahlil qilishga, xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishga, hatto o'z bilimlarini xolisona baholashga o'rgatadi. Zamonaviy pedagogika talablari multimedia vositalari orqali qiyinchiliksiz amalga oshiriladi. "Ta'lim muassasalarida mediamadaniyatni ta'lim va medianing integratsiyasi asosida rivojlantirish faoliyatini yo'lga qo'yish, mediabilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"[Rustamova 1919, 3]. Darhaqiqat, bugungi kunda bilim olishimiz, yashashimiz, hayot tarzimiz, jamiyatdagi o'rnimiz – barchasi media bilan bog'liqdek go'yo. Mediarivojimiz, mediamadaniyatimiz jamiyatdagi o'rnimizni belgilashda ham muhim rol o'ynayapti. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha va maktabdagi ta'limni media bilan integratsiyalash o'quvchiga ham qiziqish uyg'otadi, ham hayot bilan yaqinlashtiradi. Shu jihatdan darslarni multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etish tobora dolzarblik kasb etib bormoqda.

"Qayd etish lozimki, bu tip texnologiyalar mutlaqo yangi emas, zero audiovizual texnologiyalar (televideniye, kino, video) tovush, tasvir va matnni muvaffaqiyat bilan bera oladi. Multimedia texnologiyasining kiritgan yangiligi shundaki, u axborotlarni yetkazishning tegishli usullarini boshqarishga imkon berishi bilangina emas, mana shu axborotlarni tanlashda faol bo'lish imkonini ham beradi..."[Kashuk 2014, 184]. Multimedia vositalaridan foydalanishda bir qator imkoniyatlar yuzaga keladi. Shulardan biri ayni paytning o'zida yana bir qator qo'shimcha axborotlarni olish uchun havolalarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim giperhavolalar adabiy yoki musiqiy asarni ilk manba bilan, uning turli xildagi ko'rinishi yoki ijrosi bilan (turli variantdagi tarjimalari bilan) bog'lash imkonini beradi. "Assosiatsiv giperhavolalar musiqiy, tasviriy san'at va badiiy asarlarni assotsiatsiyalar, jismoniy tashuvchilar (cd, Dvd, flesh-karta) hamda onlayn-maydon orqali sayt sahifalari yoki turli portallardagi axborotlar bilan bog'lash orqali foydalana oladi"[Kashuk 2014, 188]. Respublikamizda yaratilgan www.uzedu.uz va www.multimedia.uz saytlarini yaqqol misol sifatida ko'rsatib o'tish mumkin.

Davlat ta'lim standartida "Ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq

madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”ligi qayd etilgan. Ona tili ta’limida lingvistik kompetensiyani shakllantirish bilan bir qatorda nutqiy kompetensiya elementlari – o’qish, tinglash, gapirish va yozishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sh.Yusupova ta’lim tizimida ona tili darslarining ahamiyati muhimligini quyidagicha ta’kidlaydi: “Ta’lim tizimida ona tili darslarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, fikrlash qobiliyatining moddiy ifodasi til orqali ro’yobga chiqadi. Fikrning voqe bo’lishi insonning idrok qilishi bilan bog’liq ekan, bola ona tilini bilmasdan fikrini ifodalay olmaydi, o’z maqsadiga erisha olmaydi”[Yusupova 1998, 10] . Ammo ona tilini bilish darajasini darsliklarning yillar davomida “eski qolip” asosida nashr etilayotganligiga bog’laydi. “Ona tili darsliklarining yillar osha “o’zgartirilgan” nashrlari chop etilsa-da, ulardagi dasturiy o’zgarishlar, sxematik bayon o’zgarmadi”[Yusupova 1998, 11] . Shuning uchun ham ona tili darslarining mavjud “qolip” doirasida o’tilishi o’quvchida zerikish paydo qildi. Ona tili fani faqat oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun hujjat topshiradigan o’quvchilarga majburiyat yuzasidan kerak bo’ldi, xolos. O’qituvchi va o’quvchida oliy ta’lim muassasalarining kirish imtihonlariga tayyorlanish jarayonida grammatik qoidalar-u, testlarning mohiyatiga tushunmay yodlash orqali natijaga erishish muhiti shakllandi, chunki o’quvchining bilim darajasini aniqlaydigan testlar ham mazkur “qolip”dan begona emas edi. Aksariyat ota-onalar ona tilini bilish o’qish va yozish ko’nikmasini shakllantirishdan iborat degan tushuncha bilan fikrlay boshladi. M.Asqarova ona tili darslarini yangilash uchun birinchi navbatda bu darsliklarning mazmunini o’zgartirish kerak[Asqarova 1992, 5] ligini ta’kidlagan edi. Qator yillar davomida o’z yechimini topolmay kelayotgan bu muammo bugungi kunda yechimini topayotgandek. 2020-yilda Respublika ta’lim markazi tomonidan milliy o’quv dasturi loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur dastur asosida yangi zamon darsliklari va metodik qo’llanmalar yaratildi. Bularning mazmuniga axborot asrida ta’lim olayotgan o’quvchining dunyoqarashiga mos holatda multimedia vositalaridan foydalanib yangi ma’lumot berish metodikasi singdirildi. Alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda RTM tomonidan boshlang’ich sinflar uchun har bir sinf darsliklari asosida multimedia ilovalari yaratildi. Endilikda bu jarayonning yuqori sinflar kesimida ham amalga oshishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, ilk tajriba sifatida 5-sinflar uchun adabiyot fanidan 3D formatidagi dars ishlanmalari yaratilganini qayd etish mumkin. O’rni kelganda bu kitob haqida to’xtalib o’tish joiz ko’rinadi.

Unda 3D formatidagi o'quv materialining mazmun va mundarijasi, ularni bevosita adabiyot darslarida joriy etish xususiyatlari bu boradagi mavjud muammo va qiyinchiliklar ko'rsatib berilgan. Muhimi, ayrim mavzularga aloqador dars ishlanmalari 3D formatida tavsiya etilgan. Kitobda ayrim mavzularni yoritish jarayonida ovozli hamda harakatli 3D ko'rinishlari ko'rsatib berilgan[To'xliyev 2021, 192]. Xususan, topishmoqlar, Alisher Navoiyning "Sher bilan durroj" hikoyasiga ishlangan namunalar e'tiborga molik.

Ona tili darslarida multimediadan foydalanishning pedagogik hamda psixologik jihatlariga to'xtalib o'tamiz. Ona tili darslarida multimediadan foydalanish pedagogik nuqtayi nazardan yangicha yondashuv hisoblanadi. O'quvchilar informatika darslaridan kompyuter imkoniyatlaridan xabardor bo'lsalar-da, an'anaviy ta'lim texnologiyasida kompyuterni faqat texnik vosita sifatida qabul qiladilar. Multimediالى texnologiyada kompyuter "ta'lim manbayi" sifatida mujassamlashadi. Audio, video, matn, animatsiya, grafika hamda turli jadvallar vositasida yaratilgan materiallar yangi mavzuni obrazli tushuntirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Olingan bilimni ko'nikma va malakaga aylantiruvchi topshiriqlar va hatto baholash mezonlari kompyuter xotirasiga kiritilgan bo'ladi. Kompyuter "o'qituvchi" rolini, o'qituvchi esa "boshqaruvchi" rolini bajaradi. O'quv materialining hajmini ko'paytirishda, ta'lim jarayonini oldindan loyihalashda, ta'lim shaklini qulaylashtirishda, natijani kafolatlashda, shuningdek, ta'lim metodlari, shakllari, mazmuni va tuzilishida multimediالى texnologiyaning o'ziga xos imkoniyatlari namoyon bo'ladi.

Ona tili darslarida multimediadan foydalanish o'quvchi ong ostida bir qancha psixologik reaksiyalarni keltirib chiqarishi olimlar tomonidan isbotlandi. E.G'oziyevning fikricha, "har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart"[G'oziyev 2002, 167]. Bilish motivlari shaxsda bilish, bilim va ko'nikmalarni egallash maqsadini qaror toptiradi, ya'ni shaxsni gnoseologik maqsad sari yo'naltiradi. Bilish motivlari ichki va tashqi omillar orqali shakllanadi. Multimedia vositalari orqali tashkil etilgan dars mashg'ulotlarida bilishning ham tashqi, ham ichki omillari yordamida o'quvchi shaxsida o'quv motivlarini shakllantirishga erishiladi. Masalan, o'quvchilarni kichik guruhlarda birlashtirib jamoa tashkil etish, animatsiyalar vositasida bilimini

baholash, aniq va to'g'ri to'xtamga kelmaguncha boshqa sahifaga o'tkazmaslik, sinf xonasiga zamonaviy kommunikatsiya muhitini olib kirish, o'quvchini yangi g'oyalar sari yetaklash, ijodkorlik, kreativ fikrlashga undash kabilar bevosita multimedia vositalari yordamida o'quv maqsadga nisbatan tashqi omilni vujudga keltiradi. Animatsiyalar harakatlanishi, ranglarning uyg'unligi va o'zgarib har tusga kirishi, ovozning matn va harakatlarga mutanosibligi orqali o'quvchi shaxsining tuyg'ulariga (sezish, his qilish, rohatlanishi, kayfiyatining ko'tarilishi) ta'sir o'tkazish mumkinki, bular o'qishga nisbatan individual maqsadni yuzaga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida hosil bo'ladigan ichki omillar hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida vujudga keltirish oson kechadigan bunday omillar bilishga nisbatan qiziqishni vujudga keltiradi. Bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi esa shaxsning ma'naviy darajasini oshirish uchun intilishning yetilishidir. "Ta'lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o'quvchilar xulq-atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi"[G'oziyev 2002, 167]. Bundan tashqari, o'quv materiallari ovoz, animatsiya, grafika va videodan foydalanilgan holda yaratilgan multimedia texnologiyalari orqali yoritib berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish foizining oshishi ham psixologlar tomonidan aniqlangan.

Multimedia vositalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi tatbiqi hozirgacha asosan xorijiy tillarni o'rganish jarayonida kengroq va ko'proq ko'zga tashlanadi. Ayni paytda aniq fanlar sohasida, jumladan, matematika, fizika, astronomiya, geografiya, biologiya fanlarini o'qitishda munosib tajribalar to'plangan. Bevosita ona tili va adabiyot o'quv predmetini o'qitish jarayonida bu jarayonlarning tatbiq etilishi endigina ilk qadamlarini qo'ymoqda. "Multimediani o'rgatuvchi mualliflar katta hajmdagi ta'lim jarayonini unchalik katta bo'lmagan kichik qadamchalarga bo'lishni ma'qul ko'rishadi. Bularning muvaffaqiyatli bajarilishi tegishli rag'batlarning mavjudligi bilan qo'llab quvvatlanadi"[Kashuk 2014, 165]. Nazarimizda, bunda bolalarning ancha oldinroq boshqacharoq mazmun va mavzudagi multimedia namunalari bilan tanishuvlari ham ko'zda tutiladi. Uning bir imtiyozli tomoni shundaki, harakatlar dinamikasiing jonli va ta'sirchanligi hatto namunalarning xorijiy tillarda ekanligiga qaramasdan bolalarni o'ziga ko'proq jalb etmoqda. Bu yerda bu so'zning o'rnida "mahliyo qilmoqda", deb ham aytish mumkin.

Asosiy qism

O'quv jarayonini intensivlashtirish imkonini beruvchi kompyuter dasturlari yordamida multimedia ma'ruzalarini yaratish va foydalanish mumkin. Kompyuter imkoniyatlari hamda interaktiv doskalar vositasida multimedia ma'ruzalaridan foydalanish darsni jonli va jozibali o'tkazishda yordam beradi. Interaktiv doskalar jadvallar, diagrammalar, xaritalar, fotosuratlar va ovozdan vizual tarzda foydalanib ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Interaktiv doska yordamida o'rganilayotgan material hayajonli va dinamik usullarda taqdim etiladi, mavhum tushunchalar va g'oyalarni modellash, modellarni o'zgartirish, obyektning ekranning boshqa joyiga ko'chirish va ular o'rtasida munosabat o'rnatish imkoniyatlari mavjud. Yana bir e'tiborga molik tomoni bularning barchasi real vaqtda, o'quvchining ko'z o'ngida amalga oshiriladi. Shu bilan birga tushuntirish jarayoni sezilarli darajada o'zgaradi, o'quvchilar materialni eshitib, ko'rib idrok etadi, tasavvurlari rivojlanadi. Yangi mavzuni o'zlashtirish bo'yicha jonlantirilgan va ovozashtirilgan taqdimotlar, axborotni qabul qilishning turli kanallaridan foydalanish ularning emotsional holatini, faolligini oshiradi, ijodkorlikka undaydi. Natijada bilim sifatini oshirish imkonini beradi.

Bizga ma'lumki, davlat ta'lim standartlarida sintaksis haqida umumiy tushuncha berish, teng va tobe bog'lanish, so'z birikmasi mavzulari (8-sinfda; 12-, 13-mavzular) uchun 2 soat vaqt ajratilgan. DTSda qo'yilgan talablardan kelib chiqib o'quvchida nutqiy kompetensiyaning tinglangan matndagi asosiy voqea-hodisalarni tushuna olish, matn va topshiriqlarning mazmunini anglagan holda, to'g'ri va ravon o'qiy olish, fikrini so'z va gaplarni mantiqiy bog'lagan holda, to'g'ri bayon qila olish elementlari, lingvistik kompetensiyaning yangi so'z, ibora va istilohlarni o'zlashtirish va sharhlash elementlarini shakllantirish lozim. Bularning barchasini nazarda tutgan holda, darsning yangi mavzuni tushuntirish bosqichiga mo'ljallangan multimedia mahsulotini yaratdik va amaliyotga tatbiq etib ko'rdik. Multimediali mahsulotlarning yaratilish asosi ssenariy yozish jarayoni bilan boshlanadi. Ona tili o'qituvchisi mavzu, sinf va darsning qaysi bosqichiga multimedia ishlanmasi tayyorlashni belgilab oladi. Ishning sifati va samaradorligi mualliflarning metodik, pedagogik-psixologik, texnik, estetik talablarga rioya etganligi bilan o'lchanadi. Biz ham dastlab g'oya o'ylab topdik. So'zlarning teng va tobe bog'lanishini o'quvchining ko'z oldida gavdalantirish uchun nimadan foydalansa bo'ladi? Biz yaratadigan multimedia mahsulotini "Mozaika" o'yini bilan uyg'unlashtirdik. "Mozaika" (frans. masaique

– muzalarga bag'ishlangan) – bir xil yoki turli xom ashyo (koshin, tosh, yog'och, marmar, metall va boshqalar) bo'laklaridan ishlangan tasvir. Bilamizki, "Mozaika" o'yinlari bolaning fikrini jamlash, kreativ fikrlashni uyg'otish, xotirani mustahkamlash uchun psixologlar tomonidan tavsiya etiladi. 8-sinf o'quvchisiga mozaikalar biroz jo'n tuyulishi mumkin, biroq biz buni lingvistik bilimlar bilan bog'lab olishimiz bolada qiziqish uyg'otishi tabiiy. Chunki o'zi uchun tanish va bolaligidan beri o'ynab kelgan o'yinning boshqacha mohiyat kasb etishi unga qiziqish orttiradi. Shartli ravishda texnologiyamizni "Mozaikalarda teng va tobe bog'lanish" deb nomladik.

Multimedia ssenariyasi:

O'qituvchi ko'rinishidagi qiz bola ekranda gavalantiriladi. Uning qarshisidagi ekranda dastlab mozaika shakllari paydo bo'ladi. So'ng mozaikalarda 1-qatorda tobe qism vazifasini bajarib keladigan so'zlar, 2-qatorda hokim qism vazifasini bajarib keladigan so'zlar namoyish etiladi. "O'qituvchi" bir uyum mozaikalar (yordamchi so'zlar va qo'shimchalar yozilgan)dan mosini mustaqil so'zlar orasiga joylashtirib, so'z birikmalari (tobe bog'lanishni) hosil qiladi. Bog'lovchi vosita noto'g'ri joylashtirilganda qabul qilinmaydi, faqat to'g'ri javob qabul qilinadi.


1-ekrandagi so'zlar: kitob, dala, sadoqatli, zavq, ukasi, kutubxona, tez, mehnatsevarligi, ona, chiroyli.

2-ekrandagi so'zlar: o'qib, ishlash, do'st, tinglamoq, berdi, olgan, gapirish, rag'batlantirilgan, g'amxo'rliqi, shahar.


Mozaikalar uyumi: -ni, -da, bilan, -ga, -dan, uchun, -ning.

Mozaikalar to'g'ri joylashtirilgandan so'ng quyidagi tobe bog'lanishlar hosil bo'ladi:

Kitobni o'qib, dalada ishlash, sadoqatli do'st, zavq bilan tinglamoq, ukasiga berdi, kutubxonadan olgan, tez gapirish, mehnatsevarligi uchun rag'batlantirilgan, onaning g'amxo'rliqi, chiroyli shahar (Qarang: 1-rasm).



1-rasm.



2-rasm.

Ekranda mozaikalar to'g'ri joylashtirilganining isboti sifatida ekranda yulduzchalar porlaydi. Misollar yo'qolib, qoida kelib chiqadi.

“O‘qituvchi” mavzuni tushuntiradi.

Ekranida “Bilib oling” degan yozuv chiqadi. Tasvir kattalashib kichrayaveradi.

Ekranida yozuvlar teriladi va ovoz yangraydi:

Bir mustaqil so‘z boshqa mustaqil so‘zni izohlaydigan bog‘lanish tobe bog‘lanish deyiladi. Tobe bog‘lanish ikki qismdan iborat bo‘ladi: hokim qism va tobe qism. Odatda, tobe qism hokim qismdan oldin keladi. So‘roq beriladigan bo‘lak hokim so‘z, so‘roqqa javob bo‘ladigan bo‘lak tobe so‘z hisoblanadi. Masalan: nimani o‘qimoq? – kitobni o‘qimoq.

O‘qimoq – hokim,

kitobni – tobe.

-ni bog‘lovchi vosita (Qarang: 2-rasm).

“O‘qituvchi” mavzuning davomini tushuntirishdan oldin bolalarga topshiriq berib ko‘rishini ma‘qul topdik (Qarang: 3-rasm). O‘quvchilar belgilangan vaqt ichida topshiriqni bajargandan so‘ng, “o‘qituvchi” tomonidan mavzuni tushuntirish davom ettiriladi.

Topshiriq. Aziz o‘quvchilar, endi yuqorida ko‘rsatilgan misollarni uch guruhga ajrating:

- 1) qo‘shimchalar yordamida bog‘lanish;
- 2) ko‘makchilar yordamida bog‘lanish;
- 3) qo‘shimcha va ko‘makchilarsiz bog‘lanish.

O‘quvchilar mustaqil ishni oz daftarlariga bajaradilar.

1) qo‘shimchalar yordamida bog‘lanish: kitobni o‘qib, dalada ishlash, ukasiga berdi, kutubxonadan olgan, onaning g‘amxo‘rligi.

2) ko‘makchilar yordamida bog‘lanish: zavq bilan tinglamoq, mehnatsevarligi uchun rag‘batlantirilgan.

3) qo‘shimcha va ko‘makchilarsiz bog‘lanish: sadoqatli do‘st, chiroyli shahar (Qarang: 4-rasm).

Topshiriq

Aziz o‘quvchilar, endi yuqorida ko‘rsatilgan misollarni uch guruhga ajrating:

- 1) qo‘shimchalar yordamida bog‘lanish;
- 2) ko‘makchilar yordamida bog‘lanish;
- 3) qo‘shimcha va ko‘makchilarsiz bog‘lanish.

Tekshirib oling!

1) qo‘shimchalar yordamida bog‘lanish: kitobni o‘qib, dalada ishlash, ukasiga berdi, kutubxonadan olgan, onaning g‘amxo‘rligi.

2) ko‘makchilar yordamida bog‘lanish: zavq bilan tinglamoq, mehnatsevarligi uchun rag‘batlantirilgan.

3) qo‘shimcha va ko‘makchilarsiz bog‘lanish: sadoqatli do‘st, chiroyli shahar.

3-rasm.

4-rasm.

Ekranida “Bilib oling” degan yozuv chiqadi. Tasvir kattalashib kichrayaveradi.

Ekranida yozuvlar teriladi va ovoz yangraydi:

Ba'zan bir mustaqil so'z boshqasiga ergashmay, izohlamay bog'lansa, teng bog'lanish deyiladi. So'zlarning teng bog'lanishi so'z qo'shilmalarini hosil qiladi: yoshlar va kelajak, otam bilan onam, oy hamda quyosh.

Teng bog'lanishda tobe va hokim qism bo'lmaydi, ikkala so'z ham teng huquqli bo'ladi (5-rasm).



5-rasm.

6-rasm.

Ekranda “Bilib oling” degan yozuv chiqadi. Tasvir kattalashib kichrayaveradi.

Ekranda yozuvlar teriladi va ovoz yangraydi:

So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi: otli so'z birikmasi, fe'li so'z birikmasi.

Otli so'z birikmasida hokim so'z ot, sifat, son, ravish va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi: shaharning ko'chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug'ur-chug'uri, o'quvchilarning beshtasi, do'stlarning barchasi, o'qdan tez kabi.

Fe'li so'z birikmasida hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi: kitobni o'qidi, daftarga yozmoq, tez yugurgan, ohista gapirish, ta'sirli so'zlab, zavq bilan o'qimoq (6-rasm).

Mazkur multimedia texnologiyasini yaratish uchun ishlar tartibi quyidagicha amalga oshirildi.

	Amalga oshirilgan ishlar	Foydalanilgan dasturlar
1.	Multimedia ssenariyasi yozildi.	Adobe Captivate
2.	Rasmlar tanlandi.	Adobe Photoshop
3.	Matn yozildi.	Adobe Audition
4.	Slayd yaratildi.	Adobe Illustrator
5.	Ovoz yozildi.	GoldWave
6.	Animatsiya tanlandi.	Crazy Talk
7.	Jamlandi.	

“Mozaikalarda teng va tobe bog'lanish” texnologiyasining davomiyligi 7 minutni tashkil etadi. Yangi bilim berishning 7-10 daqiqasini multimedia vositalari yoki texnologiyasiga sarflash

8-sinf o'quvchilarining yoshi, psixologiyasi, fikrlash doirasi, yangi bilimni qabul qilish ko'nikmalariga to'g'ri keladi. Namoyishdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob beradi va tushunmay qolgan o'rinlarni to'ldiradi. "Mozaikalarda teng va tobe bog'lanish" multimedia texnologiyasi chiziqli (prezentatsiya ko'rinishidagi) multimediadir. Bunda o'quvchi ishtirok etmaydi. Vaholanki, faqat ko'radi, eshitadi, tomosha qiladi, xulosa chiqaradi. Yana bir afzallik tomoni shundaki, multimediaga o'rnatilgan QR-kod orqali o'quvchilar xohlagan zamon va makonda qayta foydalanish imkoniyatiga egadirlar. (Qarang:QR-kod).



Tushuntirishning boshi mozaika o'yini bilan uyg'un holatda boshlanishi, har xil ranglar jilosi, tengdosh qizning o'qituvchi rolini bajarishi, rag'bat ma'nosida yulduzchalarning porlashi, animatsiya harakatlari, qolaversa, har bir mayda detallar ham o'quvchini qiziqtirish, uni o'ziga jalb qilish orqali mavzuni tushunishiga yo'naltirilgan.

Xulosa

Bir qarashda juda oddiy va sodda ko'ringan mana shunday holatlar, ya'ni multimedia namunalaridan foydalanish, ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning darslik materialiga, umuman, o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishini orttiradi, uning mazkur jarayonda passiv kuzatuvchi rolida qolishdan qutqarib, faol ishtirokchiga aylantiradi, uning dunyoqarashidagi ijobiy o'zgarishlarga munosib omil bo'ladi, intellektual intilish va qobiliyatini kuchaytiradi, yangi axborotni izlash va ulardan unumli foydalanishga rag'bat uyg'otadi. Jarayon butun sinf o'quvchilari ishtirokida bo'layotgani uchun ularda qiyoslash, solishtirish, farqlash, tasnif qilish va tizimlashtirish bilan aloqador bo'lgan ko'nikma va malakalarining shakllanishi hamda rivojlanishini ta'minlaydi. Ona tilidan multimedia mahsulotlarini tayyorlashda, dars bosqichlari uchun multimedia vositalaridan foydalanib ishlanmalar ishlab chiqishda, multimediali topshiriqlar yaratishda pedagogik,

psixologik, metodik, estetik, ergonomik, fiziologik talablardan kelib chiqib, muayyan tamoyil va yondashuvlarga amal qilinishi maqsadga muvofiq. Darsda o'zlashtiriladigan material va ma'lumotlarni endi nafaqat darslik, balki darsliklarning elektron ilovalari, hatto ijtimoiy tarmoqlardan ham topish mumkin. Shuning uchun ta'lim jarayonini interfaol texnologiyalar asosida tashkil etishda yangicha qarashlar, yangicha yondashuvlar zarurati tug'ildi. Bugungi maktab o'quvchilari zamonaviy axborot texnologiyalari (shaxsiy kompyuter, internet xizmatlari)dan juda faol foydalanadilar. Mubolag'asiz aytish mumkinki, yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlarning kompyuter o'yinlari, audio-video mahsulotlari va boshqa elementlarida tarbiyalanyaptilar. Shu bois zamonaviy darsning tarkibiga multimedia texnologiyalarini olib kirish, ona tili darslarini AKT bilan integratsiyalash ustuvor yo'nalishlardan biridir. Multimediali ta'lim muhitida kompyuter o'qituvchi va o'quvchi orasida yordamchi vazifasini o'taydi. Endi o'qituvchi "o'qituvchi – kompyuter – shogird" uzvida doimiy maslahatchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi do'st vazifasini bajaradi. Uning zimmasidagi "yuk" birmunchayengillashadi, imkoniyatlarikengayadi. Ammo mas'uliyati ortadi: o'z fani doirasida chuqur bilim va ma'lum tajribaga ega bo'lishi bilan bir qatorda raqamli ta'lim resurslaridan keng foydalana olishi va buni o'z o'quvchilarida ham shakllantirishi lozimligini unutmasligimiz kerak. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muassasalari malakali mediapedagoglarni kutmoqda.

Adabiyotlar

- Асқарова М. 1992. Ўзбек миллий мактаблари ҳақида баъзи мулоҳазалар. Тошкент: Тил ва адабиёт таълими.
- Воителева Т.М. 2006. Теория и методика обучения русскому языку: учеб.пособие для вузов. Москва: Дрофа.
- Кашук С.М. 2014. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку). Дисс. на соискание уч. степени доктора педагогических наук. Москва.
- Полат Е.С. 2003. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб.пособие для студ.пед.вузов и системы повыш.квалиф пед. кадров. Москва.
- Рустамова Н.Р. 2019. Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси (7-9-синфлар мисолида). Пед.фан.б. фал.док...дис. Тошкент.
- Тўхлиев Б. 2021. 5-синф адабиёт фанидан дарс ишланма намуналари (аудио ва 3Д форматидаги материаллар билан). Тошкент: "Bayoz" нашриёти.

- Юсупова Ш.Ж. 1998. Она тили таълими самарадорлигини оширишда
илғор педагогик технологияларни жорий этиш: Пед.фан.
ном. ...дисс.Тошкент.
- Ғозиев Э. 2002. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун
дарслик. Тошкент: “Университет” нашриёти.

Use of multimedia tools in the stages of explaining a new topic in mother tongue classes

Sanobar Kuldasheva¹

Abstract

The article discusses new approaches to mother tongue education in general secondary schools, integration of language education with ICT, norms and criteria of using multimedia tools in mother tongue lessons, and content. The opinions expressed by scientists about the advantages of using multimedia tools in education were analyzed. Pedagogical and psychological aspects of using multimedia tools are covered. A scenario of multimedia technology intended for the stage of explaining a new topic of the lesson is recommended.

Key words: multimedia tools, media culture, mosaic, equal connection, subordinate connection, animation, video.

References

- Асқарова М. 1992. Ўзбек миллий мактаблари ҳақида баъзи мулоҳазалар. Тошкент: Тил ва адабиёт таълими.
- Воителева Т.М. 2006. Теория и методика обучения русскому языку: учеб.пособие для вузов. Москва: Дрофа.
- Кашук С.М. 2014. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку). Дисс. на соискание уч. степени доктора педагогических наук. Москва.
- Полат Е.С. 2003. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб.пособие для студ.пед.вузов и системы повыш.квалиф пед. кадров. Москва.
- Рустамова Н.Р. 2019. Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси (7-9-синфлар мисолида). Пед.фан.б. фал.док...дис. Тошкент.
- Тўхлиев Б. 2021. 5-синф адабиёт фанидан дарс ишланма намуналари (аудио ва 3Д форматидаги материаллар билан). Тошкент: “Bayoz” нашриёти.
- Юсупова Ш.Ж. 1998. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш: Пед.фан.

¹Kuldasheva Sanobar Khayotovna – a doctoral student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Email: kuldashevasanobar01@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5476-7539

For citation: Kuldasheva, S. 2022. “Using multimedia tools in the stages of explaining a new topic in mother tongue classes”. *Uzbekistan: Language and Culture* 2(4): 86 – 99.

ном. ...дисс.Тошкент.

Ғозиев Э. 2002. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун
дарслик. Тошкент: “Университет” нашриёти.